

## TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA UNDA INSONPARVARLIK TAMOILI

**D. N. Xolmatova**

Namangan Viloyati Kosonsoy tumani 45-sonli, “Nurli Maskan”  
maktab-internati tarix fani o‘qituvchisi

*Annotation. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonning asosi hisoblangan talim tizimi, unda yurtboshimiz olib borayotgan siyosiy o‘zgarishlar va bu jarayonda malakali kadr tayyorlash va xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh intelligent resursga ega bo‘lish maqsadlari ochib beriladi.*

*Kalit so‘zlar: Rezolutsiya, siyosiy lider, umum etirof etilgan qadriyatlar, Erasmus, xalqaro ta’lim standarti ( International education degree).*

## СИЛА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ПРИНЦИП ГУМАНИЗМА В НЕЙ

*Аннотация. Отчет показывает нам, что многие данные относятся к нашей системе образования. Новую систему образования Узбекистана заменит наш президент. Этот процесс создает новые возможности и ресурсы работодателей. Но с другой стороны, наиболее важным фактом является поведение подростков, система предлагает нам сохранить хорошую точку в гуманитарно-пафосном и уважительном смыслах. В конце отчета новая система образования Узбекистана состоит из правильной, умной, измеримой, достижимой и квалифицированной.*

*Ключевые слова: Резолюция, политический лидер, общепризнанные ценности, Эразмус, международный образовательный стандарт (Международная образовательная степень).*

## ARMAMENTS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM AND THE HUMANITARIAN THEME IN IT

**Abstract.** *The report show us same many information belong to our education system . New Uzbekistan education system will be exchanged by our president . This process make new opportunity and resource of employers . But another hand most important fact is teenagers behavior , the system would offer us keep a good point in humanitarian pathetic and respectfully senses. At the end of report New Uzbekistan education system consist of righthouse , smart , measurable , achievable and skilfull.*

**Key words:** Resolution, political leader, generally recognized values, Erasmus, international education standard (International education degree).

Bilamizki dunyoda qaysi davlat bo‘lmasin unda kadr salohiyati va intelligent bazasi uni shakllantirish jarayoni butun bir tizimdir . Bunda har bir siyosiy rahbar kuchli o‘zgarish va mustahkam legitimlik yaratishga harakat qiladi . Yangi O‘zbekistonda yangi ta’lim tizimiga doir qarorlar ishlab chiqilishi zamirida yuksak intellektual salohiyatlari yoshlarni tarbiyalash, iqtisodiyot va xalq farovonligini oshirish maqsadi mujassamdir. Yangi O‘zbekistonda yangi ta’lim tizimidagi muammolarni kreativ echim topish orqali muhim yangilanishlarga erishiladi. Bu borada Shavkat Mirziyayevning 2 ta siyosiy doktrinasi va bu dasturlar orqali qo‘yilgan maqsadlar zamirida katta o‘zgarish sodir bo‘lishi kutilmoqda . Har qanday dastur faqat uni yaratuvchisiga emas uning bajaruvchi rijaglari va jamiyat faolligidan kelib chiqib mahsuldarligi ortadi.

Yangi O‘zbekistonda yangi oliy ta’lim tizimi davlat standartlari ish beruvchining ehtiyoji orqali belgilanishi maqsadga muvofiq. Ta’lim mazmuni hukumat tomonidan nazorat qilinmay, oliy o‘quv yurtlari ixtiyoriy ta’lim darajasi bo‘yicha asosiy ta’lim dasturi va fan dasturini mustaqil qabul qilishi, talabaga semestr boshida har bir fan bo‘yicha fanning maqsad-vazifalari, kiritilgan mavzular, baholash tizimi haqida aniq ma’lumot berilishi, fanlardan dars o‘tadigan professor-o‘qituvchi

haqida ma'lumotga ega bo'lishi va talaba o'qituvchini o'zi tanlashini yo'lga qo'yish lozim. Bu talabaning ham, o'qituvchining ham mas'uliyatli bo'lishini ta'minlaydi. Ilmga intiluvchi fidoyi yoshlar ko'p. Shu bilan birga, uzlucksiz ta'lim tizimidagi nomuvofiqlik, ya'ni ta'lim tizimida maktabning o'rni yo'qolishi, muallimning mav-qei tushib ketishi, maktabning zaif bo'g'inga aylanishi, oliy ta'limga ana shu zaif bo'g'inlardan bilim va dunyoqarashi o'ziga yarasha bo'lgan yoshlar kirib kelishi, oliy o'quv yurtlari ham ular darajasiga moslashishi, eng achinarlisi, qo'shni davlatlar oliy ta'lim tizimida kirish istihonlarisiz o'qishga qabul qilingan talabalarning O'zbekiston oliy ta'lim muassasalariga o'qishlarini ko'chirishlari natijasida jamiyatga o'z sohasi bo'yicha zamonaviy ilmlardan bexabar, diplomi boru mutaxassislik ko'nikmasiga ega bo'lмаган kadrlar tayyorlanishiga yo'l qo'yilmoqda. Kirish imtihonlarida shaffoflikka erishish va bu jarayonni yanada takomillashtirish orqali yo'qotilgan mavqeni tiklash, jamiyatni etuk, har jihatdan mukammal, tashabbuskor, ilg'or fikrli mutaxassislar bilan ta'minlashga erishiladi. Yangi O'zbekiston va xorij mehnat bozorida har qanday raqobatni yenga oladigan mutaxassis bo'lish uchun sifatlari ta'lim muhimdir. Yangi O'zbekistonda yangi ta'lim tizimi uchun mustaqil fikr hamda keng dunyoqarashni shakllantirish, ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan yangi usullar, so'nggi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, talabaning ochilmagan qirralarini kashf etib, yangilik va ixtiolar yaratishga ruhlantirish maqsadga muvofiq ish ekanligi yurtboshimiz tomonidan ilgari surilganligi dasturning to'laqonli ta'limning barcha shakllarini qamrab olmoqda. Yangi O'zbekistonda yangi oliy ta'lim tizimida asosiy e'tibor sifat, sifat va yana sifatga qaratilishi shart. Talaba sifatlari bilim olmasa, ta'lim sifatidan qoniqmasa, bu ta'lim jarayoni ishtirokchilari bo'lgan ta'lim muassasasi, o'qituvchi, talaba, ota-onalar, jamiyat uchun jiddiy yo'qotishdir. Uning o'rnini qog'oz va jadval bilan to'ldirib bo'lmaydi. Qog'ozbozlik ta'lim sifati va samaradorligiga eng katta to'siqdir. Talabalar bilimini baholashning reyting tizimini qayta ko'rib chiqish lozim. Test talabaning malaka va ko'nikma darajasini aniqlaydigan usul emas, lekin bugungi kunda test talabalar bilimini baholashning asosiy usuliga aylantirilgan. Qabul

imtihonlarida test tizimidan voz kechish vaqtি keldi. Talabaning amaliy mashg‘ulot va ma’ruzada olgan bilimlari joriy va oraliq baholarda mujassamlashadi. Nizomga muvofiq, faqat yakuniy baho (joriy va oraliq jamlanmasdan) onlayn test orqali qo‘yiladi. Bu tizim o‘zini oqlamaydi. Test va nazorat ishlari, asosan, talabalarning yodda saqlash qobiliyatini tekshiradi. Haqiqiy bilimni emas. Talaba egallashi lozim bo‘lgan bilimlar jamlanmasi, malaka va ko‘nikmalari joriy, oraliq va yakuniy baholarning umumlashmasi bo‘lishi kerak. Nazorat savollari shunday tuzilishi kerakki, talaba qo‘shimcha ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi, fanda o‘rgangan tushunchalarini amaliyotga tatbiq qilishi, tanqidiy fikrashi lozim. Talaba professor-o‘qituvchilarning bevosita ilmiy rahbarligida o‘z ustida ishlashi va ilmiy-tadqiqotlar olib borish malakasini shakllantirishi, ilmiy maqolalar yozish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozimligi va eng asosiysi xo‘jasizlik bemanib yuurokratik muhitlar va jarayonlar yuz bermasligi uchun shu jarayonlarni keltirib chiqaruvchi muhitning ildizi qirqilishi uchun qabul qilinayotgan qarorlar eng bu tizimning yangilanishi uchun katta asosdir.

Prezident Shavkat Mirziyoev farmoni bilan 22.06.2020 yil “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasning Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 6012-sonli farmonini imzolanishi, inson huquqlari sohasida yoshlarni xalqaro hamjihatlik, hamkorlik, totuvlik va inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmat, mas’uliyat ruhida tarbiyalash, inson huquqlarini himoyalash va kafolatlash, inson huquqlari umumiyligi madaniyatini taraqqiy toptirish farmonni asosiy yo‘nalishlaridan xisoblanadi. Shunga ko‘ra, yoshlar orasida inson qadr-qimmatini hurmatlash va tenglikni targ‘ib etuvchi ta’lim dasturlari va tadbiralarini amalga oshirish muhim sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi dunyoda yoshlar huquqi targ‘ibotida faol ishtirok etmoqda, xususan, mamlakat globallashuv sharoitida yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishga yo‘naltirilgan yoshlar huquqi to‘g‘risidagi BMT Konvensiyasini tayyorlash, shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining asosiy maqsadlaridan biri bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga bosh qo‘shish, diniy erkinlik, e’tiqodlilar huquqlari himoyasi, “Ma’rifat va bag‘rikenglik” Maxsus rezolyusiyasini

ishlab chiqishning tashabbuskori bo'ldi. Yuqoridagi asoslarning bari ta'lif modernizatsiyasi uning xalqaro standardlarga mos bo'lishi va raqobatbardosh kadr masalasini hal etib, uni inson huquqlari, milliy va diniy mentaliteti asosidagi qadriyatlarni hurmat qiluvchi manaviy dunyosi butun bo'lishi uchun katta yordam beradi. Hozirgi rivojlangan zamonda inson o'rniga suniy intelekt ustuvor ishchi kuchiga aylanmoqda ammo hech bir yaratilgan uskuna yoki dastur insonni insonchalik tushuna olmasligi tayin. Siyosiy yetakchi o'z xalqi uchun hech qachon bugunni vada bermaydi, chunki kelajak, ertangi kun bugun amalga oshirilgan qabul qilingan to'g'ri qaror va aniq ishlab chiqilgan dasturga bog'liq.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иктисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағищланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъruzasi

2. Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлиар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойидаги нутқи

3. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидаги маъruzasi